



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022

TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korruptsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNABAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav
jamg'armasidagi qarzdor ulushini
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBEB ABDULLO O‘G‘LI**
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI.
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBEB SHUHRAT O‘G‘LI**
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

134 ISLOMOV BUNĖD OCHIOVICH

Обстоятельства, смягчающие наказание и
исключающие преступность деяния по
уголовному законодательству Французской
Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА

Ограничение права на молчание
в уголовном судопроизводстве:
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of
digital information as proof in criminal cases in
Republic of Kazakhstan

175 URALOV SARBON SARDOROVICH

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 342.9(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY ODIL SUDLOV MUAMMOLARI VA MA'MURIY SUDLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Ne'matov Jo'rabek Ne'matilloevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrası
professori v.b., yuridik fanlar doktori
e-mail: jura0404uzb@mail.ru
ORCID: 0000-0003-3406-0784

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga zid qaror, harakati (harakatsizligi) yuzasidan ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqini amalga oshirishning ayrim jihatlari tahlil qilingan. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyaning kelib chiqish tarixi, ma'muriy sudlar tizimini isloh qilishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgarishlar keltirib o'tilgan. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida ma'muriy sudlar faoliyati birmuncha takomillashtirilgan bo'lsa-da, mazkur maqola doirasida tahlil qilingan ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilik masalasi hali-hanuz eng bahsli va munozarali masalalardan biri bo'lib qolmoqda. 2022-yil 29-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-sonli qarori qabul qilindi. Maqolada mazkur Qaror ijrosiga qaratilgan bir necha huquqiy masalalar tahlili ham keltirilgan. Shunga ko'ra, maqolada sudga taalluqlilikning eng ko'p uchraydigan huquqiy muammolari tahlil qilingan. Jumladan, maqola doirasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar, iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar, harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlarni ajratib olishning asosiy mezonlari ochib berilgan. Sud amaliyotida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar yuzasidan ilmiy asoslantirilgan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sudlar, sudga taalluqlilik, ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy yustitsiya.

ПРОБЛЕМЫ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ЮСТИЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДМИНИСТРАТИВНЫХ СУДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нематов Журабек Нематиллоевич,
доктор юридических наук,
и.о. профессора кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируются некоторые аспекты права физических и юридических лиц на обжалование незаконных решений, действий (бездействия) государственных органов и их должностных лиц в административном суде. В статье описаны история административной юстиции в Узбекистане и изменения в законодательстве, направленные

на реформирование системы административных судов. Хотя реформы привели к некоторым улучшениям в функционировании административных судов, вопрос подведомственности дел в административном судопроизводстве, анализируемый в этой статье, по-прежнему остается одним из самых противоречивых. Так, принято Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему обеспечению эффективной защиты прав граждан и субъектов предпринимательства во взаимоотношениях с государственными органами, а также повышению доверия населения к судам» от 29 января 2022 года № ПП-107. В статье проводится анализ ряда правовых вопросов, связанных с реализацией данного постановления. Соответственно, в статье проанализированы наиболее часто встречающиеся правовые вопросы подведомственности дел в административном судопроизводстве. В частности, раскрываются основные критерии разграничения подведомственных дел между административным судом и судом по гражданским делам, экономическим, административным и военным судами. Предложены научно обоснованные решения некоторых проблемных вопросов, встречающихся в судебной практике.

Ключевые слова: административные суды, подведомственность, административное судопроизводство, административная юстиция

PROBLEMS OF ADMINISTRATIVE JUSTICE AND OPPORTUNITIES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ACTIVITY OF THE ADMINISTRATIVE COURTS IN UZBEKISTAN

Nematov Zhurabek Nematilloevich,

Acting Professor of the Department of
Administrative and Finance Law of

Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Abstract. This article analyzes some aspects of the right of individuals and legal entities to appeal to the administrative court against illegal decisions, actions (inaction) of state bodies and their officials. The article describes the history of administrative justice in Uzbekistan, changes in the legislation aimed at reforming the system of administrative courts. Although the reforms have resulted in some improvements in the functioning of the administrative courts, the issue of jurisdiction in the administrative litigation analyzed in this article is still one of the most controversial. There was adopted Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 29, 2022 "On measures to ensure effective protection of the rights of citizens and business entities in relations with government agencies and further increase public confidence in the courts" PQ-107. The article also provides an analysis of several legal issues related to the implementation of this Decree. Accordingly, the article analyzes the most common legal issues of litigation. In particular, the article reveals the main criteria for distinguishing civil courts from administrative courts, economic courts from administrative courts, military courts from administrative courts. Scientifically based solutions have been proposed for some of the problematic issues encountered in judicial practice.

Keywords: administrative courts, jurisdiction, administrative litigation, administrative justice.

Kirish

Ma'muriy odil sudlov davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasida ommaviy-huquqiy munosabatlarni samarali hal qilishga qaratilgan ma'muriy huquq instituti bo'lib, O'zbekistonda uning rivoji oxirgi yillarda ma'muriy sudlar tizimining joriy etilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi, deb aytishimiz mumkin.

Ma'muriy odil sudlovning O'zbekistondagi rivojini ilmiy jihatdan to'g'ri tushunish uchun, avvalo, mazkur institutning sovet davri va mustaqillikning ilk yillaridan hozirgacha bo'lgan rivojlanish tarixiga ham nazar tashlash zarur.

Material va metodlar

Mazkur maqolada formal-yuridik tahlil hamda ma'muriy yustitsiya borasidagi

qonunchilikning rivojlanib borish tarixini tahlil qilish asnosida O'zbekistondagi qonunchilikning o'zgarish dinamikasini ko'rsatib berish hamda mavjud muammolarga yechimlar taklif etiladi.

Sovet davrida bevosita ma'muriy sud ish yurituvining huquqiy tavsifi ma'muriy yustitsiya tushunchasi asosida tushunilganini ko'rishimiz mumkin. Biroq ushbu ma'muriy yustitsiya instituti uzoq payt davomida rad etilganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir [1, 64-66-b.].

Ma'muriy yustitsiya yoki ma'muriy sudlovning sovet davrining ilk yillarida rad etilganiga ushbu tizimning burjua davlatiga xos tushuncha sifatida tushunilgani asosiy sabab bo'lgan [1, 65-b.].

Sovet davrida ma'muriy sudlovning rivojiga prokuror nazorati asosidagi shikoyat tizimi ham sabab bo'lgan deyish mumkin [2, 70-b.]. Sotsialistik qonuniylikning asosiy qo'riqchisi sud emas, balki prokuratura organlari bo'lgani bois shikoyatlarni prokuraturaga berish keng tarqalgan amaliyot edi.

Sovet davrida ma'muriy sudlov rivojiga davlat va fuqarolar o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi (antagonizm)ning rad etilishi ham jiddiy to'siq bo'lgan, deb aytish mumkin [3, 25-b.]. Ya'ni ma'muriy organlar (davlat) va fuqarolar o'rtasidagi manfaatlar yuzasidan nizo yoki kelishmovchilik bo'lishi sotsialistik mafkuraga zid deb qaralgan.

Biroq bunday qarashning noto'g'ri ekanligi 1970-yillar oxirida Sirenkoning ilmiy qarashlari asosida isbotlana boshladi. Sirenko o'z ilmiy qarashlarida ma'muriy organlarning manfaatlari turli shart-sharoit, tarixiy rivojlanish, resurslar taqchilligidan kelib chiqib, barcha fuqarolarning manfaatlari bilan doim ham mos tushmasligini tabiiy hol sifatida tushunish to'g'ri bo'lishini ta'kidlagan [4, 32-34-b.].

Bunday ilmiy qarash ko'pchilik olimlar tomonidan sekin-asta tan olinib, Sovet davlatida ham ma'muriy sudlovning tan olinishiga turtki bo'ldi [5, 206-b.].

Ma'muriy sudlovning ma'muriy tartibdagi shikoyat tizimidan bir necha afzalliklari mavjudligi ta'kidlana boshlandi. Jumladan, ma'muriy sudlovda fuqarolar uchun ko'proq protsessual kafolatlar mavjudligi [6, 30-b.], [7, 10-b.], ma'muriy tartibdagi shikoyatlarda qabul qilinadigan qarorlarning ko'proq deklarativ xarakterda ekanligi va sud tomonidan chiqariladigan qarorlarning yuridik majburlov kuchi borligi [8, 2-b.], ma'muriy tartibdagi shikoyatni ko'rib chiqish xolis va mustaqil yondashuv asosida qaror qabul qilishni kafolatlamasligi [9, 26-b.], [10, 41-b.], shikoyat qilish tartibining xilma-xilligi fuqarolar huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini ham kengaytirishi [11, 6-b.] asosiy omillar sifatida sanalganini ko'rish mumkin [1, 71-b; 12, 37-54-b.].

Bu kabi ilmiy qarashlar ta'sirida kommunistik tuzum qarashlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi va ilk marotaba 1977-yilgi SSSR Konstitutsiyasi 58-moddasi ikkinchi qismi bilan davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilganda, qonunda o'rnatilgan tartibda sudga shikoyat qilish huquqiga oid norma kiritildi.

Biroq ushbu konstitutsiyaviy norma o'lik norma („dead letter“ [13, 499-b.; 14, 167-268-b.]) sifatida qariyb 10 yil davomida amaliy ifodasini topmagan. Chunki sudga shikoyat qilish bo'yicha alohida protsessual tartib qonunchilik bilan o'rnatilmagan edi. 1987-yil 30-iyundagi Qonun (*Закон СССР от 30 июня 1987 г. № 7287-XI “О порядке обжалования в суд неправомερных действий должностных лиц, ущемляющих права граждан”*) bilan mansabdor shaxslar ustidan barcha holatlarda sudga shikoyat qilish va 1989-yil 2-noyabrda Qonun (*Закон СССР от 2 ноября 1989 г. № 719-I “О порядке обжалования в суд неправомερных действий органов государственного управления и должностных лиц, ущемляющих права граждан”*) asosida esa nafaqat mansabdor shaxslar, balki ma'muriy organlar ustidan ham

ayrim masalalarni istisno etgan holda, sudga shikoyat qilish imkoniyati ilk bor vujudga keldi. Biroq ushbu o'zgarish va yangiliklar 1991-yil SSSRning tugatilishi bilan o'zining amaliy va ilmiy rivojini topa olmadi [1, 79-b.].

Sovet olimlari tomonidan ma'muriy sudlovning ko'proq protsessual-huquqiy kafolat sifatida emas, balki fuqarolarning turli moddiy ehtiyojlarini ta'minlash muhimroq ekanligi [10, 13-b.], boshqa tomondan esa huquqiy kafolatlar ham muhimligi ta'kidlangan [15, 32-b.; 16, 124-b.; 17, 75-77-b.]. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida huquq va majburiyatlar mavjudligi [18, 47-b.; 7, b-4.], aniq majburiyatning mavjud emasligi esa huquqning shunchaki sarob (fiksiya) ga aylanishiga [15, 55-b.] ham olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan [17, 75-77-b.; 19, 105-b.; 20, 71-76-b.; 21, 43-b.].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'muriy sudlovning uzoq vaqt davomida rivojlanmasligiga hokimiyatlar bo'linishi prinsipining SSSR Konstitutsiyasida mavjud bo'lmagani hamda sud tizimining ijro hokimiyatidan mustaqil bo'lmagani ham ta'sir ko'rsatgan, deb aytish mumkin.

John Hazardning ta'kidlashicha, ma'muriy huquqni tushunish ham sovet davlatida farqli jihatlariga ega bo'lib, ushbu sohakommunizmga erishishga xizmat qiladigan soha sifatida qaralgan [22, 28-b.]. Biroq G'arbiy Yevropa va AQShda ma'muriy huquq ma'muriy organlar vakolatini qonunlar chegarasida (doirasida) nazorat qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi [23, 4-5-b.; 24, 4-5-b.]. Shu kabi omillar ta'sirida ham yuqorida keltirilgan 1987- va 1989-yilgi SSSR qonunlarining qabul qilinishi kechga qolgan va ma'muriy sudlovning sovet davlatida yetarlicha rivojlanishiga yo'l qo'ymagan.

Yuqorida sovet huquqida ma'muriy protsess qanday ma'no-mazmunda ko'rib chiqilgani to'g'risidagi nazariy fikrlarga to'xtalib o'tdik. Muxtasar qilib shuni aytish mumkinki, sovet ma'muriy huquqida zamonaviy ma'no-mazmundagi ma'muriy sud ish

yurituvchi instituti o'zining to'laqonli rivojini topishga ulgurmagan edi. Ma'muriy protsess degan umumiy tushuncha asosida davlat boshqaruvida ijro-farmoyish beruvchi organlarning barcha faoliyati ma'lum bir normalar bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan. Sovet ma'muriy huquqining yuqorida keltirilgan bunday ilmiy qarashlari, albatta, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ham ma'lum bir ma'noda o'z ta'sirini saqlab qolgan [25, 87-89-b.].

Bu borada O'zbekiston mustaqilligining ilk yillarida ham bir qancha muhim huquqiy islohotlar amalga oshirilganini ta'kidlash o'rinlidir. Avvalo, 1992-yil 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq, hokimiyatlar bo'linishi tamoyili o'rnatib qo'yildi. Shuningdek, ijro hokimiyati faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunlar qabul qilindi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini buzadigan g'ayriqonuniy ma'muriy harakatlar yuzasidan sud tartibida shikoyat, ariza keltirish (nizolashish) tartibi – ma'muriy yustitsiya shakllana bordi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi mustahkamlab qo'yildi.

Shundan so'ng 1995-yil 30-avgustdagi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 108-I-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-496-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini

yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida"gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

1997-yil 30-avgustdagi 477-I-sonli qonun bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksida "Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish" (264–278-moddalar) deb nomlangan 3-kichik bo'lim mavjud bo'lib, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan va bir tarafi fuqaro bo'lgan shikoyatlar fuqarolik sud ishi yurituvchi doirasida ma'muriy sudlovning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 477-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonuni o'z kuchini yo'qotganligi sababli mazkur Kodeks ham 2018-yil 1-apreldan o'z kuchini yo'qotgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 19-iyuldagi 18-sonli "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi qarori ham mavjud bo'lgan.

1997-yil 30-avgustdagi 477-I-sonli qonun bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi 3-kichik bo'limi, o'z navbatida, 3 ta bobdan (27-, 28-

va 29-boblar) iborat bo'lgan hamda mazkur Kodeksning 264-moddasiga ko'ra, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarga quyidagilar kiritilgan edi: 1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar (FPKning 27-bobi ("Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan shikoyatlar")); 2) notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organlarining harakatlarni bajarishni rad etganligi yoxud ularni noto'g'ri bajarganligi ustidan berilgan shikoyatlar (FPKning 28-bobi "Notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etganligi yoki noto'g'ri bajarganligi ustidan shikoyatlar")); 3) prokurorning huquqiy aktini g'ayriqonuniy deb topish to'g'risidagi arizasi bo'yicha ishlar (FPKning 29-bobi "Prokurorning huquqiy hujjatni g'ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi").

Bir tarafi tadbirkorlik subyekti bo'lgan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 478-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni bilan tasdiqlangan Xo'jalik-protsessual kodeksi 24-moddasi birinchi qismi 9-band, ya'ni davlat organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish, mansabdor shaxslarning shunday harakatlari (harakatsizligi)ni qonunga xilof deb topish to'g'risidagi nizolar doirasida ko'rilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi 478-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik-protsessual kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonuni bilan o'z kuchini yo'qotganligi sababli mazkur Kodeks ham 2018-yil 1-apreldan o'z kuchini yo'qotgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ma'muriy sudlov O'zbekiston mustaqillikka erishgach, birmuncha rivojlangan bo'lsa-da, Fuqarolik protsessual kodeks hamda Xo'jalik protsessual kodeks doirasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlari tomonidan ko'rilgan. Ikkita alohida sud va ikkita alohida protsessual tartibda ma'muriy nizolarning sudda ko'rilishi ma'muriy sudlovning to'laqonli rivojiga to'siq bo'lib kelayotgan edi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda ma'muriy sudlovning ilmiy-nazariy asoslari ham yetarlicha rivojlanmagan edi, deb aytishimiz mumkin.

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston tarixida birinchi marotaba fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlardan alohida bo'lgan ma'muriy sudlarning joriy etilishi, shuningdek, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba 2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun, 2018-yil 25-yanvarda esa Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning (MSIYutK) qabul qilinishi bilan O'zbekistonda ma'muriy huquq rivojining mutlaq yangi, muhim bosqichi davri boshlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ushbu yangiliklar mamlakatimizda rivojlangan xorijiy davlatlar standartlari darajasida hamda milliy qonunchilikning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning eng zamonaviy qoidalarini joriy etdi [26, 96-102-b.; 27, 29-38-b.].

Ma'muriy sudlar tizimining O'zbekistonda bundan keyin ham takomillashib borishiga

mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish va mavjud muammolar yechimini maqsad qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son Farmoni ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 107-moddasining birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-671-sonli Qonuni tahririda o'zgartirildi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Natijada viloyat darajasidagi jinoyat, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar umumiy yurisdiksiya sudlari sifatida birlashtirildi. Ma'muriy sudlar esa umumiy yurisdiksiya sudlaridan alohida sudlar sifatida saqlab qolindi. Shuningdek, O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvardan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi [28, 359-364-b.].

Ma'muriy sudlar faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2018-yilda jami ko'rilgan ishlar soni 17427 tani, shundan qanoatlantirilganlar soni 12 404 (71 %); 2019-yilda jami ko'rilgan ishlar soni 16 255 tani, shundan qanoatlantirilganlar soni 11 142 (69 %); 2020-yilda jami ko'rilgan ishlar soni 15 066 tani, shundan qanoatlantirilganlar soni 10 130 (67 %); 2021-yilda jami ko'rilgan ishlar soni 15 143 tani, shundan qanoatlantirilganlar soni 7 876 (52 %) tani tashkil etgan [31].

Ushbu statistik ma'lumotlardan shuni tushunish mumkinki, O'zbekistonda ma'muriy sudlar ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qila oladigan tizimga aylanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda ma'muriy odil sudlovning bundan keyin ham islohotlar markazida turishini anglatadi.

2022-yil 29-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-sonli qarori qabul qilindi.

Prezident qarori bilan ma'muriy sudlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ma'muriy organlar bilan bo'ladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o'rnini jiddiy ravishda oshirish nazarda tutilmoqda.

Yangi joriy etilgan ma'muriy sudlar, o'z navbatida, nazariy va amaliy jihatdan yangi muammo va ijobiy o'zgarishlarni ham yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-sonli qarori bilan ma'muriy sudlov tizimidagi bir necha muammolar yechimiga qaratilgan vazifalar belgilanmoqda.

Tadqiqot natijalari

Birinchidan, ma'muriy sud sudyalari boshqa sudlardan o'z malakasi va tajribasi jihatidan farqlarga ega bo'lishi lozim. Misol uchun, Germaniyada ma'muriy sud sudyalari ma'muriy organlar ish amaliyotini ham yaxshi bilishi talab etiladi. Bundan tashqari, 2017-yil 1-iyunda O'zbekistonda ilk marotaba ma'muriy sudlar tizimi joriy etilganda, sudyalarning fuqarolik, jinoyat, harbiy, xo'jalik sudlarida ishlagan sudyalarning tarkibidan shakllantirildi. Bunda ma'muriy sud sudyalarning fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o'rnini yuqori ekanligi bir xil tarzda tushunilmagan.

Ma'muriy sud sudyalari ma'muriy huquqning asoslarini ham yaxshi bilishi talab etiladi. Ma'muriy huquqning fuqarolik yoki jinoyat huquqi kabi kodifikatsiyalangan qonuni mavjud bo'lmagani bois uni o'rganish o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda ma'muriy sudlar hozirga qadar, asosan, eski Fuqaro-

lik protsessual kodeksi (30.08.1997-yildagi) yoki Xo'jalik protsessual kodeksi (30.08.1997-yildagi) qolipida ishlab kelayotganini ko'rish mumkin. Chunki amaldagi "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksda ham arizachi talablari qarorni haqiqiy emas, harakatlar (harakatsizlik)ni qonunga xilof deb topish doirasidan tashqariga chiqmaslik, sud qarorining ijrosi bilan bog'liq masalalarda Fuqarolik protsessual kodeks (30.08.1997-yildagi) yoki Xo'jalik protsessual kodeksi (30.08.1997-yildagi) normalarini takrorlayotganini ko'rishimiz mumkin.

Vaholanki, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarda ma'muriy da'vo tushunchasi va ma'muriy da'voning bir necha ko'rinishlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, ma'muriy aktning haqiqiy emas deb topish, ma'muriy aktning bekor qilish, ma'muriy organ zimmasiga muayyan majburiyat yuklash, ma'muriy organ tomonidan muayyan harakatlarni sodir etmaslik va boshqa da'vo talablari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda va umuman olganda, ma'muriy sudlarning mavjud sud amaliyotida yuqorida sanab o'tilgan da'vo talablarini kiritish uchun nafaqat protsessual qonun, balki uzoq yillar davomida shakllangan sud amaliyoti, sudyalarning ish uslubi ham jiddiy ravishda o'zgarishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-sonli qarori bilan sud tizimi oldiga aynan mana shunday transformatsiyani amalga oshirish vazifasi qo'yilayotganini ham ko'rishimiz mumkin.

Uchinchidan, O'zbekistonda ma'muriy sudlovning to'laqonli rivojiga to'siq sifatida sudga taalluqlilik masalasidagi jiddiy muammolar ham sabab bo'lib kelayotganini inkor etib bo'lmaydi. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish o'rniga sudlar tomonidan ayrim hollarda juda formal yondashish oqibatida ariza talablaridagi mayda xatolarni deb ariza (shikoyat)larni

sudga taalluqli bo'lmagan ish sababi bilan ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki ish yuritishni tugatish hollari mavjudligini ko'rish mumkin.

Ma'muriy sudlarning yangi joriy etilishi sudga taalluqlilik masalasida ko'pgina savollarni yuzaga keltirishi tabiiy. Biroq ushbu muammoga yechimni faqat yuqori instansiya sudlarining ko'rsatmasi va amaliyoti bilan emas, balki bu borada xalqaro darajada boy tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar hamda ma'muriy huquqning ilmiy-nazariy asoslariga murojaat qilish asnosida topish to'g'ri bo'ladi. Chunki ma'muriy sudlov xoh u yuqori instansiya, xoh u quyi instansiya sudlari bo'lsin, hamma sudylarimiz uchun ham yangilik.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-sonli qarori bilan ma'muriy sud ishlarini yuritishda eng bahsli mavzulardan biri bo'lmish sudga taalluqlilik masalasida ham mavjud muammolar yechimini topish vazifasiga alohida e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Quyida mazkur muammoning yechimiga oid ayrim fikr-mulohazalar keltirib o'tiladi.

1. Iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

Iqtisodiy-protsessual kodeksning (IPK) 25-moddasi 1-qism 1-bandida *iqtisodiy sudga iqtisodiyot sohasidagi ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar taalluqli* ekanligi keltirib o'tiladi. Bu esa MSiYutK qoidalariga zid. Chunki ma'muriy sudlar aynan ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish uchun alohida tashkil etilgan sudlar hisoblanadi. Jumladan, IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarga e'tibor bersak, ushbu nizolarning aksariyati sof ma'muriy huquqiy nizolar ekanini ko'rish mumkin. Misol uchun, litsenziya va ruxsatnomalar bilan bog'liq nizolar, aslida, MTTt Qonun 3-moddasiga ko'ra, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-tao-

millari ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan amalga oshiradigan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga kiradi.

Shunday ekan, fikrimizcha, iqtisodiy sudlarga taalluqli ishlar doirasidan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar, jumladan, IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarga chiqarish hamda ma'muriy sudlarga taalluqli ishlar sifatida belgilash taklif etiladi. Ushbu jihat haqida avval ham aytib o'tgan bo'lsak-da [29, 48-b.], I.M. Salimovanning ilmiy ishlarida ham o'xshash nuqtai nazarni ko'rishimiz mumkin [30, 22-b.].

Sud amaliyotida bahsli bo'lib kelayotgan yana bir muammolardan biri bu davlat ijrochisining qarori, harakati (harakatsizligi) bilan bog'liq nizolarning sudga taalluqliligi hisoblanadi. Bu borada ma'muriy sud va iqtisodiy sudlar o'rtasida sudga taalluqli ishlar masalasida muammolar mavjud.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-sonli qarori 7-bandi bilan "iqtisodiy sudlartomonidanko'rilayotgan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan barcha ishlar, shu jumladan, akseptsiz tartibda undiriladigan ijro hujjati ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq ishlarni ma'muriy sudlar taalluqliligiga o'tkazish" nazarda tutilmoqda.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni 86-1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi 24-sonli qarori 9-bandiga tegishli o'zgartishlar kiritib, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid barcha ishlarning ma'muriy sudlarga taalluqli ekanligini o'rnatib qo'yish lozim.

2. Harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli "Sudlar to'g'risi-

da”gi Qonuni 45-moddasi 1-qismiga ko’ra, harbiy sudlarga harbiy boshqaruv organlari qarorlari, harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni ko’rib chiqish taalluqliligi keltirib o’tilgan. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabr-dagi “Ma’muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqish bo’yicha sud amaliyoti haqida”gi 24-sonli qarorining 10-bandida “harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi), shuningdek, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar chaqiruv komissiyalarining qarorlari ustidan shikoyatlar harbiy sudlar tomonidan ko’riladi”, deb aytilsa-da, sud amaliyotida harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar qaysi sudlarga taalluqliligi yuzasidan savollar yuzaga kelmoqda. Nazarimizda, harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar ma’muriy sudlarga taalluqlidir. Chunki bu o’rinda harbiy xizmatchi yo’q va munosabat ma’muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi. Amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish maqsadida bu borada ham MSiYutK 31-moddasiga tegishli norma kiritish taklif etiladi.

3. Tegishli ma’muriy akti “bekor qilish” to’g’risidagi talablarning ma’muriy sudga taalluqliligi masalasi mavjud.

Mamlakatimizda 2017-yil 1-iyundan ma’muriy sudlar tizimi joriy etilgunga qadar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolar fuqarolik va xo’jalik sudlari tomonidan ko’rib kelingan. Mazkur sudlar amaliyotida ham, asosan, ikki xil mazmund-

agi ariza (shikoyat) bilan murojaat qilish amaliyoti mavjud edi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Plenumining 2016-yil 17-iyundagi “Davlat organlari va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo’lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini haqiqiy emas deb topish, ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi)ni qonunga xilof deb topish to’g’risidagi nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 298-sonli qarori 7-bandi ikkinchi xatboshisida “davlat organlari va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining hujjatlarini bekor qilish, noqonuniy (qonunga xilof), qonuniy deb topish, bekor qilingan hujjatni o’z kuchida qoldirish, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi)ni haqiqiy emas deb topish, bekor qilish kabi talablar sudda ko’rib” chiqilmasligi o’rnatilgan edi. Bu, albatta, ma’lum bir tekstual pozitivizmga sabab bo’lgan edi.

Biroq bir qator qonun hujjatlarimizda ma’muriy akti “bekor qilish” talabi bilan sudga murojaat qilish mumkinligi ham mavjud. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 157-moddasiga ko’ra, “Soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan talablarga rioya etmaslik yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo’lishi mumkin. Soliq tekshiruv materiallarini ko’rib chiqish tartib-taomilining boshqacha buzilishlari ham, agar bunday qoidabuzarliklar soliq organi rahbari (rahbar o’rinbosari) tomonidan g’ayriqonuniy qaror qabul qilishga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo’lsa, yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo’lishi mumkin”. Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonuni 59-moddasida ham “Qonun hujjatlarida ma’muriy hujjatlar

faqat sud tartibida bekor qilinadigan yoki o'zgartiriladigan hollar nazarda tutilishi mumkin. Manfaatdor shaxsning ishonchi himoya qilinishi lozim bo'lgan hollarda, ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish masalasi sud tartibida ko'rib chiqiladi" degan normalar mavjud.

Bu borada Germaniya, Yaponiya kabi bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida ham ma'muriy akti bekor qilish talabi ma'muriy sud ish yurituv doirasida ko'rib chiqilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, ma'muriy sud ish yurituvda fuqarolarning tegishli arizalarida "bekor qilish" talabi mavjudligining o'zi ma'muriy sudlovga taalluqlilikni istisno etmaydi. Bundan tashqari, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun asosida ma'muriy akt (misol uchun, tegishli ma'muriy organ qarori)ning haqiqiy emasligi va bekor qilinishi ikkita har xil tushuncha sifatida keltirib o'tiladi. Ma'muriy akti bekor qilish va haqiqiy emasligi asoslari bir-biridan farq qiladi. Demak, bu masalada ham protsessual qonun normalariga o'zgartirish hamda ma'muriy sudlar o'z amaliyotini o'zgartirishi talab etiladi.

4. *Davlat xizmatiga oid nizolar ham ma'muriy sud sudloviga taalluqlidir.* Jumladan, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, "davlat xizmatini o'tash" ma'muriy-huquqiy faoliyatga kiritilmagan. Biroq davlat xizmatiga kirish, undan chiqish kabi davlat xizmatini o'tashga kirmaydigan nizoli masalalar ma'muriy sudlarga taalluqli bo'ladi. Bunday ishlarni fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida jismoniy va yuridik shaxslarga oid mehnat munosabatlari doirasida ham ko'rib chiqib bo'lmaydi. Xorijiy davlatlarda sudyalarga intizomiy jazo qo'llash, prokuratura organlari xodimlari, bojxona, ichki ishlar organlari yoki turli vazirlik-idoralar davlat xizmatchilarini xizmatdan bo'shatish kabi mehnat shartnomasiga asoslanmagan munosabatlarga oid ishlar aynan ma'muriy sudlar sudloviga taalluqli ekanligi belgilanganini ko'rish mumkin. Misol uchun,

Rossiya Federatsiyasida sudyalarga intizomiy jazo qo'llashga oid nizoli ishlar ma'muriy sudlovga taalluqlidir.

FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlari jumlasiga ham muammoli jihat hisoblanadi. Gap shundaki, davlat xizmati yoki davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar rivojlangan davlatlar (jumladan, Germaniya, Yaponiya va boshqa)da ma'muriy sud ish yurituv doirasida ko'rib chiqiladi. Chunki davlat xizmati hamda xususiy sektordagi mehnat shartnomalaridan yuzaga keladigan nizolarni bir xil deb bo'lmaydi. Bu masalalar bir-biridan keskin farq qiladi. Davlat xizmatida Mehnat kodeksida nazarda tutilgan mehnat shartnomalari tuzilmaydigan sohalar, misol uchun, sudya, prokuratura organlari tezkor xodimlari, ichki ishlar va boshqalar ham mavjud. Shunday ekan, davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni mehnat munosabatlari sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli deb aytish xato bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda sud amaliyotida davlat xizmati bilan bog'liq nizolar ham mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizo sifatida ko'rilmogda.

Fikrimizcha, FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar jumlasiga aniqlik kiritib, davlat xizmatiga oid nizolar bundan mustasno ekanligini kiritish lozim. Zero, qabul qilinishi kutilayotgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun loyihasida ham ushbu nuqtai nazar o'z tasdig'ini topmogda.

5. *Ma'muriy organ zimmasiga muayyan majburiyatni yuklashga oid talablar ma'muriy sudga taalluqliligi masalasi mavjud.*

Ta'kidlash joizki, MSYutKda ariza talabi sifatida ma'muriy organ zimmasiga muayyan "majburiyat yuklash" nazarda tutilmagan. Agar arizachi ma'muriy organ zimmasiga muayyan "majburiyat yuklash" haqidagi talabi yuzasidan ham alohida davlat boji to'lab, sudga murojaat qiladigan bo'lsa, bunday ariza talablarini ko'rib chiqish ma'muriy sudga taalluqli bo'lmaydi.

Biroq sud amaliyotida arizachilar tomonidan ma'muriy organ qarorini haqiqiy

emas deb topish yoki harakatlar (harakatsizlik)ni qonunga xilof deb topish haqidagi ariza talabi bilan bir qatorda, alohida davlat boji to'lanmagan holda, qo'shimcha ravishda buzilgan huquqlarni tiklash usuli sifatida ma'muriy organ zimmasiga muayyan "majburiyat yuklash" ham so'ralmoqda. Nazarimizda, bunday hollarda ma'muriy organ zimmasiga muayyan "majburiyat yuklash"ni arizaning alohida talabi sifatida emas, balki MSiYutK 189-modda 5-qismida nazarda tutilgan buzilgan huquqni tiklash usuliga oid murojaat deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Chunki MSiYutK 189-modda 5-qismiga ko'ra, qaror haqiqiy emas, harakatlar (harakatsizlik) qonunga xilof deb topilgan taqdirda, sud tegishli organ yoki mansabdor shaxsning zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi: qonunga muvofiq qaror qabul qilish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud arizachining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishlarini boshqacha usulda bartaraf etish; yo'l qo'yilgan buzilishlarni bartaraf etish va hal qiluv qarori ijrosi to'g'risida sud va arizachiga, agar sud tomonidan boshqacha muddat belgilanmagan bo'lsa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir oy ichida xabar qilish.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, majburiyat yuklashga oid ma'muriy da'vo arizalari keltirish ma'muriy sudlov rivojlangan davlatlarning aksariyatida mavjud.

Bu borada Germaniya, Yaponiya va hatto Rossiya kabi bir qator davlatlar qonunchiligida ham muayyan moddiy va protsessual normalarga rioya etish sharti bilan ma'muriy organ zimmasiga majburiyat yuklashga qaratilgan ma'muriy da'vo talabining ma'muriy sud ish yurituvi doirasida ko'rib chiqilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, ma'muriy sud ish yurituvida fuqarolarning tegishli arizalarida ma'muriy organ zimmasiga muayyan "majburiyat yuklash" talabi mavjudligining o'zi ma'muriy sudlovga taalluqlilikni istisno etmaydi.

Fikrimizcha, ma'muriy sudlov tizimi rivojlangan davlatlar, jumladan, Germaniya tajribasi asosida kelgusida O'zbekistonda ham MSiYutKga turli mazmundagi ma'muriy da'vo arizalari, jumladan, bekor qilish, majburiyat yuklash kabi talablar bilan murojaat qilish imkoniyatlarini inobatga olib, tegishli o'zgartishlar kiritilishi lozim.

6. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi (FPK) 26-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha sudga fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar taalluqlidir.

E'tibor berish lozimki, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi yoki mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolarning huquqiy tabiati noaniqligicha qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sud amaliyotida ko'pgina muammolarga sabab bo'lmoqda. Gap shundaki, yer to'g'risidagi munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yer to'g'risidagi munosabatlar doirasida amalga oshirilgan, deb aytish mumkin bo'lsa-da, boshqa tomondan xuddi shu masalani ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasidagi nizo deb aytish ham mumkin. Sud amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shu paytgacha yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yuzasidan nizolar ma'muriy sudlarda ko'rib chiqilgan.

Nazarimizda, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar jumlasini chiqarib tashlash lozim. Zero, yerga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni umumiy ma'noda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar sifatida ko'rib chiqishda hech qanday muammo mavjud emas.

Bundan tashqari, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandidagi korxonalar, muassasalar, tash-

kilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarning keltirib o'tilishi ham ko'pgina tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan va bunday munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari chegarasini aniqlash qiyin. Misol uchun, korxona rahbarining qandaydir buyrug'i shu korxonada ishlovchi ishchining huquqlarini buzadigan bo'lsa, bunday nizo shundoq ham mehnat nizosi sifatida umumiy tartibda ko'rib chiqiladi. Bu holat uchun FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani o'rnatish talab etilmaydi.

Shuningdek, sud amaliyotida davlat muassasalari hisoblangan oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar o'rtasidagi o'qishga qabul qilish va o'qishdan chetlatish bilan bog'liq nizolarni ham fuqarolik-huquqiy nizo sifatida tavsiflash qiyindir. Chunki davlat granti asosida o'qishga kiradigan talabalar mavjud bo'ladi yoki o'qishdan chetlatilgan talaba sudga ariza bilan murojaat qilganda, universitet bilan shartnomada nazarda tutilgan shartlar bajarilishi yuzasidan nizolashmaydi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 7-bandida "tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari mansabdor shaxslarining ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash haqidagi qarorlari va harakatlari MSiYutK 23-bobida nazarda tutilgan tartibda nizolashilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prot-

sessual kodeksining 542-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal qilinadigan masalalar bundan mustasno"ligi keltirib o'tiladi. Bu o'rinda davlat muassasalari, ya'ni jazoni ijro etish muassasalari bilan mahkumlar o'rtasidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga oid nizolar ma'muriy sudlarga taalluqliligi keltiriladi. Tabiiy savol tug'iladi: davlat muassasasi hisoblangan oliy ta'lim muassasasining talabaga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari yuzasidan nizolar nega endi ma'muriy sudga taaalluqli nizo hisoblanmasligi kerak? Hozirgi sud amaliyoti bu o'rinda ham xatolikka yo'l qo'ymoqda, nazarimizda.

Shunga ko'ra, fikrimizcha, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Amaldagi MSiYutK 26-modda 4-qismida keltirilgan norma (o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilar ma'muriy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo'yicha sudga ko'rilishi lozim) ham sudga taalluqlikning umumiy qoidalariga, aslida, nomuvofiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-sonli qarori 4-bandi bilan "bir sud ishi doirasida ba'zilar ma'muriy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishni taqiqlash", shuningdek, mazkur Qaror 7-bandi bilan "hozirda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilayotgan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan barcha ishlarni ma'muriy sudlar taalluqliligiga o'tkazish" nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash joizki, ma'muriy sudga taalluqli ishlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilishi muammolarga sabab bo'lmoqda. Chunki, aslida, bu ikki sudga taalluqli ishlarning bir-biridan farq qiladi. Ushbu jihat ma'muriy sud ish yurituvini va fuqarolik sud ish yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini) ning farqiga borib taqalishini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekistonda mavjud ma'muriy sud ish yurituvini va fuqarolik sud ish yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini)ning farqini to'g'ri tushunmaslikdan protsessual qonunlardagi qoidalarining noto'g'ri o'rnatilishi yuzaga kelmoqda.

Bu borada ma'muriy sud ish yurituvining fuqarolik sud ish yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini)dan farqining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-son qarori 2-bandi bilan qonunchiligimizga joriy etilishi nazarda tutilayotgan yangi tamoyil, ma'muriy sud ishlarini yuritishni "sudning faol ishtiroki" tamoyili asosida amalga oshirish belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-son qarori 2-bandi bilan "bunda ma'muriy sudlarga ishning haqiqiy holatlarini aniqlash uchun o'z tashabbusi bilan dalillarni yig'ish majburiyatini yuklash, huquqi buzilgan fuqaro yoki tadbirkorlik subyektiga esa dalillarni yig'ishda faqat o'z imkoniyati doirasida ishtirok etishga sharoit yaratish" ko'zda tutilmoqda.

Amaldagi protsessual qonunlarimizdagi taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipining MSiYutK 11-modda, IPK 9-modda, FPK 10-moddalarida, shuningdek, isbotlash majburiyatiga oid MSiYutK 67-moddasi (isbotlash majburiyati), FPK 72-moddasi (isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati), IPK 68-moddasi (isbotlash majburiyati)da deyarli bir xil mazmundagi qoidalarining o'rnatilishi noto'g'ri hisoblanadi. Chunki bu uch sud ish yurituvining alohida protsessual qonun bilan tartibga solinishi sud ish yurituvini tartibida ham farq bo'lishini nazarda tutishi lozim. Agar ushbu jihatdan farq bo'lmasa, alohida protsessual qonun emas, yagona qonun asosida ham mazkur masalalarni tartibga solish mumkin bo'lar edi.

Aslida esa ma'muriy sud ish yurituvini o'z protsessual qoidalariga ko'ra, fuqarolik sud ish

yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini)dan farq qiladi. Ushbu farqni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri bu ma'muriy sud ishlarini yuritishni "sudning faol ishtiroki" tamoyili asosida amalga oshirish bilan bog'liqdir. Mazkur tamoyil "inkvizitsion" tamoyil deb ham nomlanadi. Inkvizitsion tamoyil sud ish yurituvining taraflar notengligi, isbotlash majburiyatining ma'muriy organ zimmasiga yuklatilishi kabilar bilan ham tavsiflanadi. Bu esa, o'z navbatida, MSiYutKning prinsiplar, sud ish yuritish tartibi, dalillar va isbotlash bilan bog'liq qoidalariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan shuni ko'rish mumkinki, ma'muriy sudlar mamlakatimizda nisbatan yangi sudlar hisoblangani bois sudlovga taalluqlilik borasida yuqorida tahlili keltirilgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida ham bu boradagi qonunchilik, sud amaliyoti hamda ma'muriy sudlovning nazariy asoslarini takomillashtirib borish muhim hisoblanadi.

Umid qilamizki, 2022-yil 29-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-sonli qarori qabul qilinishi bilan yuqorida sanab o'tilgan muammolarga to'g'ri yechim topish yo'lida ma'muriy huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar va amaliyotdagilar birlashib, mamlakatimizda ma'muriy sudlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ma'muriy organlar bilan bo'ladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o'rnini jiddiy ravishda oshirishga munosib hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. Barry D.D. Administrative justice: the role of Soviet courts in controlling administrative acts. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, pp. 64-66.
2. Solomon P., Foglesong T. Courts and Transition in Russia. *The Challenge of Judicial Reform*, Westview Press, 2000, p. 70.
3. Burkov A.L. Akti sudebnogo normokontrolya kak istochnik administrativnogo prava [Acts of judicial normative control as a source of administrative law]. PhD thesis. Tyumen, 2005, p. 25.
4. Sirenko V.F. Problema interesa v gosudarstvennom upravlenii [The problem of interest in public administration]. Kiev, Naukova dumka Publ., 1980, pp. 32-34.
5. Simis K. The Making of the New Soviet Constitution: Conflict over Administrative Justice. *Soviet Union*, 1979, vol. 6, part 2, p. 206.
6. Eliseikin P.F. Sudebnyy nadzor za deyatelnostyu administrativnix organov [Judicial supervision over the activities of administrative bodies]. *Problems of state and law at the present stage*, Vladivostok, 1963, p. 30.
7. Stolmakov A.I. Administrativno-pravovye i sudebnye metody ohrany sub"ektivnix prav grazhdan SSSR [Administrative-legal and judicial methods of protecting the subjective rights of citizens of the USSR]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1971, p. 10.
8. Guk N.N. Teoreticheskie i prikladnye problemy realizatsii konstitutsionnogo prava sovetских grazhdan na obzhalovanie deistvii (aktov) gosudarstvennykh, obshchestvennykh organov i dolzhnostnykh lits [Theoretical and applied problems of the implementation of the constitutional right of Soviet citizens to appeal against the actions (acts) of state, public bodies and officials]. Abstract of PhD thesis. Kiev, 1991, p. 2.
9. Nedbaylo P.E. O iuridicheskix garantiiakh pravil'nogo osushchestvleniia sovetских pravovykh norm [On Legal Guarantees for the Correct Implementation of Soviet Legal Norms]. *Soviet State and Law*, 1957, no. 6, p. 26.
10. Kvitkin V.T. Sudebnyi kontrol' za zakonnost'iu deistvii gosudarstvennykh organov [Judicial control over the legality of the actions of government bodies]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 1967, p. 41.
11. Bonner A.T., Kvitkin V.T. Sudebnyi kontrol' v sfere gosudarstvennogo upravleniia [Judicial control in the field of public administration]. Moscow University, 1973, p. 6.
12. Smith G. The Soviet Procuracy and the Supervision of Administration. Sijthoff & Noordhoff Publ., 1978, pp. 37-54.
13. Ioffe O.S. Administrative law in the Soviet legal system: concluding remarks. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, p. 499.
14. Kuss J. Gerichtliche Verwaltungskontrolle in Osteuropa [Judicial administrative control in Eastern Europe]. Berlin, 1990, pp. 167-268.
15. Chehot D.M. Problemi zashiti subektivnix prav i interesov v poryadke neiskovix proizvodstv sovetского grazhdanskogo protsesssa [Problems of protection of subjective rights and interests in the order of non-claim proceedings of the Soviet civil process]. Doctor's degree dissertation. Leningrad, 1969, p. 32.
16. Malein N.S. Sudebnyi kontrol za zakonnostyu pravovykh aktov [Judicial control over the legality of legal acts]. *Soviet State and Law*, 1975, no. 5, p. 124.
17. Khamaneva N.Yu. Pravo jalobi grazhdan v yevropeyskix sotsialisticheskix stranax [The right to complain of citizens in the European socialist countries]. Moscow, Nauka Publ., 1984, pp. 75-77.
18. Yurkov B.N. Protsessualniye garantii prav grazhdan pri rasмотрenii i razreshenii sudom жалоб на действия административных органов [Procedural guarantees of the rights of citizens when considering and resolving complaints against the actions of administrative bodies by the court]. PhD thesis. Kharkov, 1974, p. 47.

19. Berezina N.V. Sudebnaya zashita prav v sfere sobstvenno administrativnix-pravovix otnosheniy [Judicial protection of rights in the sphere of "proper" administrative-legal relations]. PhD thesis. Leningrad, 1984, p. 105.
20. Chechot D.M. Administrativnaya yustitsiya (Teoreticheskiye problemi) [Administrative justice (Theoretical problems)]. Leningrad, 1973, pp. 71, 76, 98-99.
21. Chechot D.M. Sudebniy control za administrativnoy deyatelnostyu v SSSR [Judicial control over administrative activities in the USSR]. *Soviet State and Law*, 1972, no. 1, p. 43.
22. Hazard J.N. What kind of propaganda in Administrative Law. Ed. G. Ginsburgs. *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 1989, p. 28.
23. Schwartz B., Corrada R.L., Brown J.R. Administrative Law: a casebook. 7th ed., Aspen Publ., 2010, pp. 4-5.
24. Wade W., Forsyth Ch. Administrative Law. *Oxford University Press*, 2000, pp. 4-5.
25. Ichihashi K. 市橋克哉「社会主義国の行政手続法の概要と特色」法律時報 [Outline and Characteristics of the Administrative Procedure Act of Socialist Countries]. *Law Bulletin*, vol. 65, no. 6, pp. 87-89.
26. Nematov J. Some issues of perception, interpretation of administrative law and legal education in modern Uzbekistan. *Review of Law Sciences*, 2019, no. 1, pp. 96-102.
27. Nematov J. New administrative law reforms in Uzbekistan: problems and their solutions. International Cooperation Department Research and Training Institute Ministry of Justice (Japan). *ICD News*, 2018, no. 75 (2018/6), pp. 29-38.
28. Ne'matov J., Astanov Sh. O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishni isloh qilish masalalari [Issues of reforming the judicial process of administrative offenses in Uzbekistan]. *Journal of Legal Research*, 2020, no. SI2, pp. 359-364.
29. Ne'matov J. Ma'muriy sud ish yurituvida sudlovga taalluqlilik [Judicial relevance in administrative proceedings]. *Criteria of fairness*, 2020, no. 6, p. 48.
30. Salimova I.M. Iqtisodiy nizolarning taalluqliligi (nazariy-huquqiy va protsessual jihatlar) [Relevance of economic disputes (theoretical, legal and procedural aspects)]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2020, p. 22.
31. Ma'muriy sudlar tomonidan ommaviy nizolarning ko'rib chiqilishi dinamikasi [Dynamics of public dispute resolution by administrative courts]. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2022/17-01/mamuriy-2021-12oy.pdf/> (accessed 20.02.2022).